

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 7



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 348 sahifa.*

*E'lton qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIUpfessori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi IJQKD boshlig'i

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musayeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Cham Tat Huei, ( PhD ) USCI universiteti professori**, Malayziya

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

**Djudi Smetana**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

**Krissi Lyuis**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

**Ali Konak (Али Күнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari .....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari .....	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili .....	32
Bahriiddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili .....	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi .....	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagи rolini tahlil qilishning zamонавиy yondashuvlari .....	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi .....	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish .....	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni .....	65
Bayanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan .....	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni .....	76
Jusupova Anjim Tansiqaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish .....	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va audit bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari .....	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budgetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi .....	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli .....	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферу услуг в регионах Андижанской области .....	109
Мусабоев Рустам Алихонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida) .....	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari .....	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы .....	122
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зохид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрова	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	



# YURIDIK SHAXSLAR FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNING XORIJY TAJRIBALARI

**D.J.Babajanov**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi PhD

**Annotatsiya:** Mazkur maqola foya solig'i bilan bog'liq soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirishga bag'ishlangan. Foya solig'i davlat uchun muhim daromad manbayi bo'lib, samarali soliq ma'muriyatichili byudjet daromadlarini samarali yig'ish va soliq to'lchilar tomonidan rioya etilishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu tahlil jarayonni soddalash-tirish, soliq to'lashdan bo'yin tov lash holatlarini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay muhit yaratish maqsadida takomillashtirilishi mumkin bo'lgan soliq ma'muriyatichiligining turli jihatlarini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** soliq, foya solig'i, soliq tushumlari, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi. soliq munosatlari, soliq siyosati, davlat byudjeti, soliq ma'muryatchiligi, soliq yuki.

**Аннотация:** Данная статья посвящена совершенствованию налогового администрирования по налогу на прибыль. Подоходный налог является важным источником доходов правительства, и эффективное налоговое администрирование имеет важное значение для обеспечения эффективного сбора доходов и соблюдения требований налогоплательщиками. В этом анализе рассматриваются различные аспекты налогового администрирования, которые можно улучшить, чтобы упростить процесс, сократить уклонение от уплаты налогов и создать более благоприятную для бизнеса среду.

**Ключевые слова:** налог, налог на прибыль, налоговые поступления, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка, налоговые отношения, налоговая политика, государственный бюджет, налоговое администрирование, налоговое бремя.

**Abstract:** This article is devoted to improving tax administration for income tax. Income tax is an important source of government revenue and effective tax administration is essential to ensure efficient revenue collection and taxpayer compliance. This analysis looks at various aspects of tax administration that can be improved to simplify the process, reduce tax evasion and create a more business-friendly environment.

**Key words:** tax, income tax, tax revenues, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax benefits, tax rate, tax relations, tax policy, state budget, tax administration, tax burden.

## KIRISH

Jahonda tobora keskinlashib borayotgan global raqobat sharoitida mamlakatlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etib, bu soliq-byudjet tizimining samaradorligini ta'minlash, mahalliy byudjetlarning barqarorligi va ularning daromadlar bazasini mustahkamlashning dolzarbligini oshirmoqda. "Foydani soliqqa tortish bevosita soliqqa tortish amal qilishining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, ya'ni soliqlarning fiskal funksiyasini bajarish maqsadida xo'jalik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish ro'y beradi. Uzoq yillar davomida foya solig'i byudjet soliq daromadlarining ahamiyatli qismini shakllantirib, tashkilotlarning rivojlanishida muhim tartibga soluvchi rolni o'ynaydi". Jalon iqtisodiyotida huquqiy jihatdan shakllantirilgan korporativ soliq stavkalari korporatsiyalar duch keladigan asosiy soliq stavkasi hisoblanib, bu yuridiksiyalarni hisobga olgan holda va vaqt o'tishi bilan korporatsiyalar uchun standart soliq stavkalarini taqqoslash uchun qo'llanilishi mumkinligini anglatadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda turli mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy maqsadi kamroq xarajat qilgan holda maksimal foya olishga harakat qilishdir. Shu bilan birga, korxona to'lov intizomi mustahkam bo'lsa, byudjetga o'z vaqtida soliqlarni to'lab har bir jarimalardan qochishga intiladi va soliqlarni o'z vaqtida byudjetga to'laydi. Foya tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarining so'nggi moliyaviy natijasi bo'lishi bilan birga, respublika va mahalliy byudjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi.



Narxlар barqaror bo'lganda foyda dinamikasining o'sishi korxonaning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi. Foya hajmining o'sishi korxonaning moliyaviy qudrati, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish fondini tashkil etish hamda ishchi-xizmatchilarni moddiy rag'batlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Abdukarimov (2005) foydani murakkab iqtisodiy kategoriyalardan biri sifatida e'tirof etib, u asosan qo'shimcha qiymat yaratish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi deb ta'kidlaydi.

Alieva (2011) foydani tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to'lov, ya'ni aynan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni mohirona birlashtirishi, korxona boshqarish bo'yicha noodatiy qarorlar qabul qilishi, mahsulotlarning innovatsion turlarini joriy qilishi, ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirishi uchun, shuningdek iqtisodiy risk uchun mukofot sifatida e'tirof etadi. Nemis iqtisodchisi E.F. Sheffle foydani investitsiya qilingan kapital qaytimi sifatida talqin etgan.

Milyakov (1999) foydani korxona byudjetini shakllantirishning muhim manbasi va bu manba hisobidan ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish amalga oshirilishini aytib o'tadi. Ko'pchilik singari Mardiasmo (2013) ham, foya solig'i foyda bilan bog'laydi. U foya solig'i qonunchilikda ko'rsatilgan subyektiv shartlar va ob'ektiv talablarga rioya qilingandagi soliq to'lovchilardan olinadi deb fikr keltiradi.

Toshmurodov (2004) korxonalar foya solig'ining mohiyati foydaning bir qismini majburiy to'lov sifatida davlat byudjetiga markazlashtirilishida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan – foya solig'i tushunchasiga quyidagi taklif shakllantirildi: – foya solig'i deganda korxona, tashkilot va birlashmalarda yaratilgan qo'shimgan qiymatning bir qismi foydani qonun doirasida belgilangan chegaralarda majburiy to'lov sifatida davlat byudjeti ixtiёriga o'tkazilishi bilan bog'liq pul munosabatlari tushuniladi.

A.Fedorov. (2010) fikricha, "ma'muriy yukni kamaytiradigan va yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faolligini rag'batlantiradigan soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etgan, amaldagi soliq imtiyozlarini sezilarli darajada kengaytiradigan va to'ldiradigan hamda o'z investitsiya manbalarini ko'paytiradigan yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faoliyatini soliq orqali rag'batlantirish usullari va uslublarini ishlab chiqqan, ularning samaradorligini baholagan".

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada soliqqa tortish bo'yicha qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takkomillashtirishga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Foydani soliqqa tortish bo'yicha xorijiy tajribani miqdoriy va sifat mezonlari bo'yicha qiyosiy tahlil qilish O'zbekiston soliq siyosatida muhim hisoblanadi va foydani soliqqa tortishni takomillashtirishning bir qator yo'nalishlarini aniqlashga imkon berdi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston soliq tizimi ma'lum darajada boshqa mamlakatlarning soliqqa tortish tizimlarining hosilasi bo'lib, bu quyidagi umumiyl fikrlar mavjudligi bilan tasdiqlanadi: - O'zbekistonda 15% foya solig'i stavkasi o'rtacha Yevropa darajasiga (27%) solishtirish mumkin - foya solig'i bazasi barcha manbalardan olinadigan yalpi daromad va belgilangan ishlab chiqarish xarajatlari o'rtaсидagi farq - soliqqa tortiladigan daromadlarni hisoblashda har xil turdag'i soliq imtiyozlarining mavjudligi, shu jumladan, o'xhash turdag'i imtiyozlar (tezlashtirilgan amortizatsiya, investitsiya solig'i krediti va boshqalar).

Foya solig'inini takomillashtirishning ichki konsepsiyasining asosi 1990-2000-yillarda keng tarqalgan edi. Xorijda soliq solinadigan bazani kengaytirish bilan birga soliq stavkasini pasaytirish amaliyoti mavjud bo'lib, bu O'zbekistonda ham investitsiyalar va bir qator boshqa soliq imtiyozlarini bekor qilgan holda soliq stavkasini pasaytirish shakliga ega bo'ldi.

Xorijiy mamlakatlarda va O'zbekistonda foya solig'inini tartibga solish vositalarini sifat va miqdoriy mezonlar bo'yicha qiyosiy tahlil qilish uchun har bir mamlakatning soliq tizimi va ularning asosiy soliq vositalarini ko'rib chiqish zarur. Sifat mezonlari bo'yicha soliq tizimining progressivligida soliqlarning daromadlarga muvofiqliq soliq to'lovchilar o'rtaSIDA qanday taqsimlanishini o'rganadi. Xorijiy mamlakatlarda progressiv soliqqa tortish tizimi tez-tez qo'llaniladi, unda daromad oshishi bilan soliq stavkasi oshadi. O'zbekistonda ham progressiv soliqqa tortish bor, lekin stavkalar ayrim xorijiy mamlakatlarga qaraganda past bo'lishi mumkin.

Mazkur jadvalda Soliq stavkalarini tahlili bo'yicha esa soliq stavkalarini darajasi taxmin qilinadi va xorijiy mamlakatlarda stavkalar ancha yuqori bo'lishi mumkin, ayniqsa boylar va korporatsiyalar uchun. O'zbekistonda stavkalar ham yuqori bo'lishi mumkin, ammo ular soliq to'lovchilar toifasiga bog'liq bo'lib, jismoniy shaxslar uchun 12 %, yuridik shaxslar uchun 15 %. Soliq muhit bo'yicha soliq tizimining qulayligi va shaffofligi darajasi, shuningdek, har xil faoliyat turlari uchun soliq imtiyozlari va imtiyozlarning mavjudligi hisobga olinadi.



**1-jadval.** Sifat va miqdoriy mezonlar bo'yicha xorijiy mamlakatlarda va O'zbekistonda foydani soliq bilan tartibga solish vositalarini qiyosiy tahlil qilish<sup>1</sup>

Mezonlar	O'zbekiston	Rossiya	AQSH	Kanada	Germaniya	Buyuk Britaniya	Fransiya	Ispaniya	Avstriya	Xitoy
<b>Sifat mezonlari</b>										
Progressiv foya solig'i shkalasining mavjudligi			+		+	+				
Qo'shimcha foya solig'ini qo'llanilishi			+	+	+					
Hududiy hokimiyat organlariga foydani soliqqa tortishni tartibga solish uchun kengroq huquqlar berilganligi			+	+						
Keng miqyosdagi ilmiy-tadqiqot ishlari uchun imtiyozlar	+	+	+	+			+		+	
Tezlashtirilgan amortizatsiya stavkalarini qo'llash	+	+	+	+	+	+	+	+		+
Kapital qo'yilmalarga imtiyozlar					+			+		+
Kichik biznesni rag'batlantirish	+				+			+	+	
Eng kam foya solig'ini mavjudligi										+
<b>Miqdor mezonlari</b>										
Foya solig'i stavkalari	15%	24%	18-46%	24,5-38%	45%	10-30%	10-42%	35%	25%	33%
Foya solig'ini davlat budjetidagi ulushi	20%	21%	7%	5,5%	15%	7,7%	30%	8%	15%	19%

Xorijiy mamlakatlarda odatda soliq tizimining yanada rivojlangan infratuzilmasi va soliqlarni optimallashtirish uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston ham soliq muhitini yaxshilash choralarini ko'rmoqda, ammo xorijiy davlatlar bilan taqqoslaganda u kam rivojlangan bo'lishi mumkin.

Miqdoriy mezonlar bo'yicha tahlil qilganimizda, umumiyligi soliq stavkasi bo'yicha korxonalar va jismoniy shaxslarga soliq yukining umumiyligi darajasi baholanadi. Bu yerda barcha to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlar, shuningdek, ijtimoiy badallar hisobga olinadi. Xorijiy mamlakatlarda umumiyligi soliq stavkasi, ayniqsa korporatsiyalar uchun ancha yuqori bo'lishi mumkin. O'zbekistonda umumiyligi soliq stavkasi ham o'rtacha darajadan yuqori bo'lishi mumkin. Foya solig'i stavkasi bo'yicha korxonalar uchun foya solig'i darajasi taxmin qilinadi va xorijiy mamlakatlarda foya solig'i stavkasi har xil bo'lishi mumkin va turli omillarga, shu jumladan, korxona va sanoat hajmiga bog'liq. O'zbekistonda foya solig'i stavkasi 15 %ni tashkil etmoqda. Investitsiyalarni

<sup>1</sup> Банхаева Ф.Х. Сравнительный анализ налоговых систем и его значение для совершенствования и реформирования налогового законодательства // Налоговый вестник. - 2001. - №2,3, Буздалина О.Б. Потребительская кооперация в условиях глобализации мировой экономики // Налоговый вестник. - 2002. - №12, Грибкова Н.Б. Опыт налогового регулирования в зарубежных странах и возможность его использования в России // Налоговая политика и практика. - 2005г. - №7. - С. 16-23, Попова Л.В., Маслова И.А., Земляков Ю.Д., Маслов Б.Г., Дрожжина И.А., Салихова В.Ю. Налоговые системы зарубежных стран // «Бухгалтерский учет в издательстве и полиграфии». - 2007. - N 10 и др.



soliqqa tortish yuzasidan investitsiyalardan olingen foyda solig'i baholanadi. Xorijiy mamlakatlarda dividendlar va kapital daromadlarni soliqqa tortish tizimi, ayniqsa xorijiy investorlar uchun bo'lishi mumkin. O'zbekistonda investitsiyalarga soliq solish foyda manbayi va soliq rejimiga qarab ham ahamiyatli bo'lishi mumkin. Umuman olganda, xorijiy davlatlar va O'zbekistonda foyda solig'ini tartibga solish vositalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq tizimlarining ayrim jihatlari o'xshash bo'lishi mumkin bo'lsa-da, soliq stavkalari va soliqlarni optimallashtirish shartlarida hali ham sezilarli farqlar mavjud

Soliq stavkalarini pasaytirish va imtiyozlarni bekor qilish orqali soliqqa tortish bazasini kengaytirish tendensiyasi ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar soliq siyosatiga xos bo'lgan yana bir jarayon hisoblanadi. Bunda rag'batlantiruvchi ta'sirni maqsadli yo'naltirish muhim va soliq stavkani kamaytirish bilan birga amalga oshirishni taqozo etadi. Ilmiy-tadqiqot, kichik biznes, xorijiy investitsiyalarni jalb etish kabi sohalarni rivojlantirish maqsadida alohida soliq rejimlari yaratilib, turli imtiyozlar berilmoqda. Bu darajada kamaytiradigan ko'plab imtiyozlar birlashtirilmoqda. Ikkinci holda, o'rta va past soliq stavkalari maqsadli imtiyozlardan cheklangan va o'rtacha foydalanish bilan birlashtiriladi.

Shu bilan birga chegirilmaydigan xarajatlar bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilganda, ularning turi Xitoyda 8 ta, Armanistonda 4 ta, Ozarbayjonda 7 ta, Gruziyada 7 ta, Singapurda 16 ta, Indoneziyada 9 ta, Germaniyada 4 ta va Ispaniyada 6 tani ekani ma'lum bo'ldi. Soliq kodeksining 317-moddasiga asosan chegirilmaydigan xarajatlar turi 36 tani tashkil qiladi, bu xorijiy davlatlarnikiga solishtirganda 4-5 barobarga ko'pdir. Shu sababli chegirilmaydigan xarajatlar turi, iqtisodiy mohiyati aniq korxonalar misolida hamda jamlanma shaklda shuningdek, xorijiy tajriba misolida o'rganilganda aniqlashtiruvchi xulosalarga erishdi.

Qayd etilgan holatlar bo'yicha kiritilgan bo'nak to'lovlari qanday tartibda hisoblanganligi o'rganilganda, avans to'lovnvi asossiz kamaytirilganlik holatlari isbotlanmasdan Soliq kodeksining 340-moddasida har bir chorak uchun bo'nak to'lovlarni hisoblash tartibidan kelib chiqib kiritilganligi ma'lum qilindi. Shu bilan birga mazkur masala bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilganda 1-ilovadagi tahlil natijalariga erishildi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, hech bir mamlakatda soliq organlariga soliq to'lovchilar tomonidan taqdim qilingan avans ma'lumotnomaga asossiz o'zgartirish kiritish huquqi berilmagan. O'rganilgan mamlakatlarning bittasida (Angola) avans to'lovi yiliga bir marta, ikkitasida yiliga 2 marta (Yaponiya va Italiya), beshtasida choraklik (Turkiya, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon va Vietnam), ikkitasida korxona xususiyatiga qarab oylik yoki choraklik va to'rttasida oylik (Rossiya, Qozog'iston, Indoneziya va Argentina) avans to'lovlari amalga oshiriladi.

2020-yilda O'zbekistonda tamaki ishlab chiqaruvchi korxonaning rentabelligi 76,5 foizni, 2021-yilda 77,2 foizni, 2022-yilda 64 foizni tashkil etdi. Xorijiy tajriba, qoida tariqasida, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun foyda solig'ining oshirilgan stavkalarini qo'llashni nazarda tutadi. Misol uchun, Buyuk Britaniyada ushbu toifadagi soliq to'lovchilar uchun foyda solig'i stavkasi 25%, Yaponiyada – 23,2%, Janubiy Koreyada – 24%, Rossiya va Qozog'istonda – 20% qilib belgilangan.

Transmilliy raqamli korporatsiyalar (Facebook, Amazon, Google va boshqalar) O'zbekistonda jismoniy shaxslarga elektron xizmatlar ko'rsatishdan olingen daromaddan soliq to'lamaydi. Shu bilan birga, 2020-yildan boshlab bunday korporatsiyalar uchun O'zbekistonda QQS to'lash majburiyati yuklandi. Taklif sifatida O'zbekistonda jismoniy shaxslarga elektron xizmatlar ko'rsatishdan daromad oladigan transmilliy raqamli korporatsiyalar (Facebook, Amazon, Google va boshqalar) uchun 5 foizlik daromad solig'ini joriy etish maqsadga muvofiq. Nati-jada har bir shaxs olingen daromadidan soliq to'lashi lozimligi tamoyili ta'minlanadi, budget tushumlari oshadi. Xorijiy tajriba o'rganilganda, shunga o'xshash soliq Fransiya, Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Vengriya, Turkiyada amal qiladi. Bu stavka o'rtacha 2% dan 7,5% gacha tashkil etadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi ekspert Yuliy Yusupov raqobatbardosh muhitni yaratish bo'yicha islohotlarni mamlakatimizda amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlardan biri sifatida qayd etib, raqobat – bozor iqtisodiyotining dvigatevi ekanligi, rivojlangan raqobat muhiti yaratilmas ekan oldinga harakatlanish mumkin emasligini qayd etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatçiligin takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarini kengaytirish vazifalari belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan Farmon va qaror-larga asosan bir xil soliq solish obyektlariga ega bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni birlashtirish soliq ma'muriyatçiligining samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan biri sifatida belgilandi. Bu borada, korxonalar foydasini soliqqa tortish borasida amalga oshirilgan islohotlarni alohida qayd etish lozim.

Bunda foydadan olinadigan soliq yukini kamaytirish, qo'shimcha soliq turlarini qisqartirish, foyda solig'ini hisoblab chiqarishni soddalashtirish va soliq stavkalarini optimallashtirishga e'tibor berildi.

2-jadval. 2021–2023-yillarda korporativ daromad solig'i stavkasining muhim o'zgarishlari<sup>2</sup>

T/r	Davlat nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	AQSh	28%	21%	21%
2	Kanada	15%	15%	15%
3	Braziliya	25%	22,5%	20%
4	Argentina	25%	25%	25%
5	Urugvay	25%	25%	25%
6	Germaniya	15%	15,825%	15,825%
7	Italiya	24%	24%	24%
8	Buyuk Britaniya	19% (kichik korxonalar uchun) 25% (daromadi 250 ming funt. sterlingdan oshganlari uchun)	19%	25%
9	Shvesariya	14,93%	14,93%	14,93%
10	Fransiya	28,4%	25,8%	25%
11	Rossiya	20%	20%	20%
12	Singapur	17%	17%	17%
13	Avstraliya	26%	26%	25% (kich-o'rta uchun) 30%
14	Turkiya	20%	23%	
15	Janubiy Koreya	25%	10-25% (prog)	9-24% (prog)

Dunyoning barcha yirik mintaqalarida, jumladan, eng yirik iqtisodiyotlarda pasayish kuzatildi. Qo'shma Shtatlarda 2017-yilgi soliqlarni qisqartirish va ish o'rnlari to'g'risidagi qonun mamlakatning qonuniy korporativ daromad solig'i stavkasini dunyodagi eng yuqori soliq stavkalaridan o'rta soliq stavkalariga yaqinlashtirdi. Osiyo va Yevropa mamlakatlarida korporativ daromad solig'i stavkalari boshqa mintaqalardagi mamlakatlarga qaraganda pastroq bo'lib, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda korporativ daromad solig'i stavkalari dunyo bo'ylab o'rtacha ko'satkichdan yuqori.

Bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda korporativ soliq stavkalari 20 foizdan 30 foizgachani tashkil qiladi. 2021, 2022 va 2023-yillarda Amerika, Yevropa va Osiyo qit'alaridan rivojlangan 5 tadan mamlakatlar stavkalarini tahlil qiladigan bo'lsak korporativ soliq stavkasida muhim o'zgarishlar bo'lmagan. 8 ta mamlakat (Kanada, Germaniya, Italiya, Turkiya, Rossiya, Singapur, Argentina va Urugvay)da stavka deyarli o'zgarmagan, 4 ta mamlakat (AQSh, Braziliya, Fransiya, Janubiy Koreya)da stavka kamaygan va qolgan 2 ta Buyuk Britaniya va Avstraliya mamlakatida stavka 19 foizdan 30 foizgacha oshgan.

Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda chet el tashkilotlarini savdo, sanoat va boshqa tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlarni soliqqa tortishning eng keng tarqalgan asoslari soliq qonunchiligidagi biznes instituti (doimiy muassasa) tashkil etilishi bilan bog'liq. Doimiy muassasa institutidan foydalanish, ushbu tashkilotlar rezident bo'lgan har ikkala davlatning va ular faoliyat ko'rsatadigan davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda, xorijiy tashkilotlar uchun muvozanatlari soliq rejimini o'rnatishga imkon beradi. Doimiy muassasaning asosiy maqsadlaridan biri bu faoliyat ko'rsatadigan mamlakatda soliq solinadigan xorijiy tashkilotning daromadlarini aniqlashdir<sup>4</sup>.

Bu xorijiy tashkilotning soliqqa tortiladigan daromadi kompaniyaning umumiyligi daromadining ma'lum bir ulushi sifatida yoki shartli ravishda mustaqil biznes bo'linmasining foydasini aniqlanishi mumkin. Har bir mamlakatda kompaniyaning umumiyligi foydasida foyda ulushini aniqlashning o'ziga xos usullari mavjud. Foyda kompaniyaning umumiyligi savdosidagi ulushiga qarab hisoblanishi mumkin ya'ni:

bo'linma ishchilarini soni va kompaniya xodimlarining umumiyligi soniga nisbati bo'yicha;

2 Корпоратив даромад солигининг қонуний ставкалари ОЕСдан олинган, "ИИ.1-жадвал. Қонуний корпоратив даромад солиги ставкаси", 2022 йил май ойида янгиланган,

3 Kari Jahnson va Kayl Pomerleau, „Dunyo bo'ylab korporativ daromad solig'i stavkalari, 2017-yil, "Soliq jamg'armasi, 2017-yil 7-sentyabr, <https://taxfoundation.org/corporate-income-tax-rates-around-the-dunyo-2017/>.

4 [https://oak.uz/pages/5789-Rajapov\\_Shuxrat\\_Zaripbaevichning\\_falsafa\\_doktori\\_\(PhD\)\\_dissertatsiyasi\\_himoyasi\\_haqida\\_e'lon](https://oak.uz/pages/5789-Rajapov_Shuxrat_Zaripbaevichning_falsafa_doktori_(PhD)_dissertatsiyasi_himoyasi_haqida_e'lon)



ma'lum bir mamlakat hududida joylashgan kompaniya aktivlari ulushiga mos ravishda va boshqalar. Ko'pchilik mamlakatlarda soliqqa tortish hatto xorijiy kompaniyalarning notijorat tashkilotlarida ham qo'llaniladi. Bunday hollarda soliq summasi, odatda, ushbu idorani, byuroni va boshqalarni saqlash xarajatlari 5-8 foiziga asoslanadi.

Investitsion foyda (passiv daromad) uchun „daromad manbayi“ mezoni qo'llaniladi. Agar tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlar nuqtayi nazaridan, daromad keltiradigan faoliyatni amalga oshirishning tabiatи va usullari ularni soliqqa tortish nuqtayi nazaridan hal qiluvchi bo'lsa, unda ularning manbayi joylashgan joy passiv daromadlar uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi - ma'lum bir mamlakat ichida yoki undan tashqarida passiv daromadlar va asosiy daromad o'rtaqidagi asosiy farq bu tijorat foydasi hisoblanib, bu shundan iboratki, ular doimiy yoki oldindan to'lanadigan to'lovlar xususiyatiga ega bo'lib, tomonlar kelishgan davrda to'lanadi va belgilangan stavka bo'yicha (20-30%) amalga oshirilgan har bir to'lov uchun manbadan soliqqa tortiladi.

Shu bilan birga, soliq budgetga soliq agenti tomonidan daromad oluvchining hisobidan to'lanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda rezident tashkilotlarning xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortilishini bartarf etish uchun quyidagi usullar aniqlangan:

- boshqa mamlakatda olingen ma'lum bir daromadni (masalan, iqtisodiy faoliyatdan olinadigan foyda) soliq bazasidan chiqarib tashlash (ozod qilish usuli) (1);
- boshqa mamlakatda olingen daromadlarni soliq solinadigan bazaga kiritish, keyinchalik ushbu mamlakatda to'lanadigan daromad solig'i summasidan to'langan xorijiy soliqlarni chegirib tashlash (hisobga olish usuli, soliqni hisobga olish) (2);
- korxonaning soliq solinadigan bazasini aniqlashda chet elda to'langan soliqlarni chegirib tashlanadigan xarajatlarga kiritish (cheirma usuli) (3).

$$Tax = P_R \times p_{tax}, \quad 1)$$

$$Tax = [P_R + P_s] \times p_{tax} - Tax_s \quad 2)$$

$$Tax = [P_R + P_s - Tax_s] \times p_{tax} \quad 3)$$

Bu yerda,

$Tax$  – soliq summasi, rezidentlik davlatidagi to'lovi,  
 $P_R$  – foyda, rezidentlik davlati tomonidan olingen foyda,  
 $P_s$  – foyda, chet mamlakatlari manbalaridan olingen foyda,  
 $p_{tax}$  – rezidentlik davlatidagi soliq stavkasi,

$Tax_s$  – soliq summasi, chet davlatlari manbalaridan to'langan soliq summasi.

Davlatning ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning muayyan usulini tanlashi uning soliq siyosating maqsadlari „soliq betarafligi“ tushunchasiga bog'liq. Xalqaro biznesni soliqqa tortishda bunday soliq qoidalarini yaratish, ular chet elda iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi, shu bilan soliq nuqtayi nazaridan tijorat qarorlarining betarafligini ta'minlaydi. Ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari mos ravishda import, eksport va milliy betaraflikni ta'minlaydi. Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish muammosi soliqlardan qochish va soliq to'lashdan bo'yin tov lash muammosi bilan chambarchas bog'liqdir.

Soliq to'lashdan bo'yin tov lashda ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmini qo'llash uchun davlatlar o'rtaSIDA chora-tadbirlar ko'rmoqda, shu jumladan, soliq qonunchiligidan transfert narxlarini tartibga soluvchi qoidalari, ortiqcha kapitallashuv va imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklashlar shular jumlasiga kiradi. Soliqqa tortishning hududiy tizimi va soliqlarni kreditlash tizimi alohida mamlakatlarning qonunchiliqi darajasida ikki yoqlama soliqqa tortish muammosini hal qilishga imkon beradi. Ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risidagi xalqaro shartnomalar davlatlararo darajadagi ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosini hal etishga yordam beradi. Xalqaro amaliyotda bunday shartnomalar, odatda, chet el manbalaridan olinadigan daromadlarni soliqqa tortishdan ozod qilish bilan bir qatorda, soliqqa tortishda cheklowlar ham mavjud.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish mumkinki, mamlakatimizda korxonalar foydasini soliqqa tortishni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida, foyda solig'i stavkasini tabaqalashtirish, bunda kichik biznes subyektlari, qishloq xo'jaligi korxonalari va notijorat tashkilotlariga uning nisbatan pastroq stavkasini va rentabellik darajasi yuqori faoliyat turlariga, aksincha yuqoriroq stavkasini joriy qilish lozim. Shu bilan birga, foydani soliqqa tortishning xalqaro andozalarida, soliqning tartibga solish salohiyatini amalga oshirish tashkilotlarning soliq yukini kamaytirishga emas, balki makroiqtisodiy o'sishga va xo'jalik yurituvchi subyektlarning uzoq muddatli rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Buning uchun amortizatsiya siyosati, investitsion soliq imtiyozlari, chegirmalar va boshqalar kabi soliqni tartibga solish mexanizmlari yuqori samaradorlikda namoyon qilishi kerak.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Foyda solig'i ma'muriyatçiligin takomillashtirish tahlili bo'yicha takliflar Aniqlikni oshirish va noaniqlikni kamaytirish uchun foyda solig'i qonunlari va qoidalarining murakkab qoidalarini ko'rib chiqing va sod dashtiring. Keraksiz byurokratik tartib-qoidalarni bartaraf etish va soliq to'lash va hisobot berish talablarini soddalashtirish. Soliq to'lovchilarни foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar va rivoja qilish tartib-qoidalari haqida xabardorlik va tushunishni oshirish uchun kompleks ta'llim dasturlarini ishlab chiqish. Soliq to'lashdan bo'yin tov lashni aniqlash va oldini olish, soliqlarning adolatli va adolatli yig'ilishini ta'minlash uchun muntazam soliq tekshiruvlari va tekshiruvlarini o'tkazish. Soliq deklarasiyasini oson va tezroq topshirish hamda qog'ozbozlikni qisqartirish uchun elektron soliq to'lovi va to'lov tizimlarini joriy etish.

### **Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

1. Mardiasmo D. (2013) Taxation, Publisher Andi, Revision Edition, – p. 55.
2. Maxmudova, N. J. (2020). Theoretical foundations of risk management in large corporate structures. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 83-88.
3. Tashmuradov T. (2004) Soliq nazariyasi va tizimi. Darslik. –T.: Bilim., -320 б.
4. Абдукаримов Б. (2005) ва бошқ. Корхона иқтисодиёти. – Т.: Фан, , 220 б.
5. Алиева С.С. (2011) Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. (на примере предприятий Самаркандской области). Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, – с. 26.
6. Мануйленко В.В., Садовская Т.А. Экономическая сущность, виды и функции прибыли хозяйствующего субъекта: современный аспект //Финансовая аналитика: проблемы и решения. – 2012. – №. 33. – с. 26.
7. Миляков Н.В. (1999) Налоги и налогообложение. Курс лекций. – М.: ИНФРА-М., – с. 348.
8. Федоров Андрей Николаевич. Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Нижний Новгород 2010.
9. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

